



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Dilafroz Jurayeva**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi, o'qituvchi

## TA'LIM-TARBIYA SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi davr ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham samarali bo'lishi ta'kidlangan.

**Аннотация:** В данной статье освещено значение современных технологий в системе образования в настоящее время. Подчеркивается, что применение инновационных технологий в процессе урока будет эффективным как для учителя, так и для ученика.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash g'oyasi XVI asrda yashagan buyuk slovyan pedagogi Ya.O.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o'zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta'lim-tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo'lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilishi kerak ediki, butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Ya.O.Komenskiy yetmagan niyatga XX asr pedagoglari yetib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi. XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

"Pedagogik texnologiyalar" ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish,

tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solib, uning optimal loyahasini tuzish bilan bog'liq tushunchadir. Jumladan, o'qitishning va'zxonlik, og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchining bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'llovchi – o'qituvchi, ustoz rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlarini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir xil yakuniy natijaga erishish imkoniyatining mavjudligidir. Ayniqsa, o'qitishga yagona Davlat ta'lim standartlari joriy etilgan, jahonning barcha davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashning hozirgi davrida keyingi holat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanaadi, kutilayotgan yakuniy natija – ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayoning takrorlanuvchi sikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi, o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

“Innovatsiya” – umumjahon tillaridan kelib chiqqan bo'lib, (“indeks”, “instansiya”, “inflyasiya”, “inkassa” kabi), 2 ta – yunoncha “inos” – oid, taalluqli va ruscha “новый” – yangi, yangicha so'zlarining birikmasidan tashkil topgan. “Innovatsiya” tushunchasi – yangilikka oid, yangitdan kiritilayotgan ma'nolarini anglatadi. Bu tushuncha ingliz tilida ham “innovation” deb yuritilib, yangilik kiritish, yangicha ma'nolarida qo'llaniladi. “Innovatsion texnologiyalar” atamasini ishlab chiqarishda ijobiy sifat va miqdor o'zgarishlariga olib keluvchi, yangi, yangicha, yangitdan kiritilayotgan usullar deb tushunish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va ularni ta'lim tarbiya jarayonlariga tadbiiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Amaldagi an'anaviy o'qitish tizimi, ya'ni quruq og'zaki so'zlar yordamida o'qitish yaxshi samara bermay qo'ydi.

Buning o'rniga esa “Axborot-amaliy o'qitish” tizimi ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'proq samara berilishi hukumatimiz tomonidan ilmiy asoslab berilmoqda. Bu talablarga erishish uchun esa, ilm-fan, texnika-texnologiyalar taraqqiyotining nazariy-amaliy asoslarini puxta o'rganish, uni amaliyotda doimo sinab ko'rish, ishlab chiqarishga keng joriy etish bilangina tobora ko'payib borayotgan axborot oqimlari ichidan zarurlarini ajratib ola biladigan, uni ta'lim-tarbiya jarayonlariga maqsadga muvofiq tadbiiq etadigan,

vaqtning tig'izligini ustalik bilan engib o'tadigan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj katta ekanligi asosiy maqsadimizdir.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standartlash demakdir.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etish, shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi

Pedagogik texnologiyalarning tuzilmasi quyidagi tarkibdan tashkil topgan:

1. Konseptual (nazariy asoslar)
2. Ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni.
3. Texnologik jarayonlar.

O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyaning turli usullaridan foydalanish mumkin. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bumerang", "BBB", "Baliq ovi", "Men kimman?", "Sen menga, men senga" kabi usullarini misol keltirishimiz mumkin. "Sen menga, men senga" usuli o'quvchining ziyrak, xushyor, zukko va bilimdon bo'lishga chorlaydi. Bunda har biri to'rtta o'quvchidan iborat bo'lgan guruhlar tuziladi. O'tilgan dars mavzusi bo'yicha birinchi guruhdagi o'quvchi, ikkinchi guruhdagi o'quvchiga savol beradi. Javob berilgach, savol berish navbati, ikkinchi guruhdagi o'quvchiga beriladi. Xattaxtada to'g'ri javoblar ball bilan belgilab boriladi.

Masalan, "Ikki qismlik kundalik" usulidan matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o'qib chiqilgach, daftar varag'i quyidagi tarzda ikki qismga bo'linadi:

#### PARCHA SHARH

Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

Xuddi yuqoridagilar singari "Keys stadi", "Breynstorming", "Breynrayting", "Bahsmunozaralar", "Imen", "Zigzag", "5x5x5" usullari, "Evrestik", "Katexizik", "Germenevtik", "Suqrot" suhbatlari; rebus, krossvord, suduko, chaynvord, filvord,



shifrogramma, kakuko, sirli piramida, divord yoki duali o‘yin turi, sangoku, chaynkrosvord o‘yin usullari orqali o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori darajada o‘tkazish mumkin.

Ko‘rsatilgan o‘yin, usullarining barchasi barkamol avlodni kelajakka komil inson qilib tarbiyalash uchun qo‘llaniladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.,2008
2. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. «O‘qituvchi» 2004.